

## YANGI O`ZBEKISTONDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA SIYOSIY QASHLAR TRANSFORMATSIYASINING ZARURATI

Mo`minxo`jayev Abrorxo`ja Muksumxodjaevich

**Respublika ma`naviyat-ma`rifiy markazi qoshidagi Ijtimoiy-ma`naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi, O`zbekiston Respublikasi IIV ixtisoslashtirilgan maktab-internati o`qituvchisi (100123, O`zbekiston, Toshkent shahri, sh. Shayxzoda ko`chasi 64 e-mail: abrorhuja@inbox.ru**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7597296>

**Annotatsiya:** Tezida O`zbekistonning rivojlanish yo`lida to`siq bo`lib xizmat qilayotgan muammolar, mafkuraviy taxdidlar haqida malumot beriladi. Yangi O`zbekistonni qurishda muammolar va taxidlar bilan munosabat va kurash yo`lining almashtirishiga bo`lgan siyosiy transformatsiyaga bo`lgan zaruriyat ular asosida kelib chiqadi.

**Kalit so`zlar:** liberal qarashlar, so`rovnoma, rahbar kadrlar, xalqaro reytinglar, kadrlar muammosi, Afg`oniston muammosi, "Tolibon", mas-media

O`zbek xalqi mafkuraviy tahdidlarga nisbatan o`zida liberal qarashlar shakllantirishda taraqqiy etgan xalqlarga nisbatan umummilliy manfaatlar yo`lida birlashish, etiqodi va prinsplari oldida shaxsiy javobgarlikka erishish, siyosiy faol bo`lish va muammolarga ochiq ko`z bilan qarash kabi masalalarda sezilarli darajada ortda qolmoqda. Xalq orasida yuqorida sanab o`tgan muammolarimizning keskin ko`rinish olishiga yo`l qo`yish, tashqi kuchlarning katta bo`lmagan aralashuvi bilan bir necha o`n yillik beqarorlik va ijtimoiy bo`xronlarga sabab bo`lishi mumkinligini biz Xindiston va Pokiston davlatlari o`rtasidagi munosabatlar, Yugoslavyaning parchalanishi, "Arab bahori", Ukraina revolutsiyasi, 2020-yil Belarus, 2022-yil Qozog`iston va Qoraqalpog`istondagi xalq namoishi kabilar misolida kuzatib kelyapmiz.

Afsuski o`tkazilingan so`rovnomalarda o`zbek jamiyati a`zolari qaror qabul qilishda jamiyat yoki oila manfaatlardan kelib chiqib emas, asosan hududdagi obro-e`tiborli, mansabdor, malaliy lider bo`lgan shaxslarga taqlid qilish orqali qaror qabul qilish ko`rsatkichi ancha yuqori ekanligi aniqlandi.<sup>1</sup> Aholining asosiy qismini tashkil qiluvchi o`zbeklar urf-odat, an`ana masalalarida konservativ qarashlarini o`zgartirishi juda qiyin kechyapti.

Prizidentimiz Sh.Mirziyoev endi O`zbekistonni va xalqni avvalgi boshqaruv uslublari bilan taraqqiy ettirishning iloji yo`qligini qat'iy takidlab, zamonaviy dunyoda xalqimiz va rahbar kadrlarga o`zining yangi talablarini ma`lum qildi. Prizident yangi O`zbekistonda rahbar kadrlarning zamon talablariga moslashmasligi, xalqning xizmatida bo`lmasligi, o`z qarashlarini yangicha (liberqal) yo`nalishda ko`rib chiqmasligi xalqqa va davlat siyosatiga xiyonat darajasida baholanishini alohida takidladi.<sup>2</sup>

Prizidentning kadrlar tayyorlash va tayinlash siyosatiga butunlay yangicha talablarni qo`yishi zarurati qanchalik aktual asosga edi? Bu savolga biz O`zbekistonning Sh.Mirziyoev

<sup>1</sup> <https://uz.denometr.com/docs/768/index-94216-1.html?page=3>

<sup>2</sup> [Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари бўйича мажлиси.](#)

[https://www.youtube.com/supported\\_browsers?next\\_url=https%3A%2F%2Fwww.youtube.com%2Fwatch%3Fv%3DDprh27sjYDA](https://www.youtube.com/supported_browsers?next_url=https%3A%2F%2Fwww.youtube.com%2Fwatch%3Fv%3DDprh27sjYDA)

prizidentlikka kirishgan davrigacha bo'lgan davrda xalqaro reytinglardagi o'rnini, sotsial muammolarning ochiqlangandagi holati misolida ko'rib chiqamiz.

- Jahon bankinging **“Biznesni yuritish” xalqaro reytingida** O'zbekiston umumiy ro'yxatning 141-o'rinini, MDX davlatlari ichida esa 13-o'rinni egallab faqat Tojikistonni ortda qoldirgan edi<sup>3</sup>

- Kiriditlashtirish yo'nalishida 105-o'rin
- Mol-mulkni ro'yxatdan o'tkazish 113-orin
- Soliqqa tortish 118-o'rin
- Minoritar investrorlar himoyasi 100-o'rin
- Korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish 64-o'rin
- Elektr ta'minoti tizimiga ulanish 112-o'rin
- Qurilishga ruhsat olish 151-o'rin
- Xalqaro savdo 159-o'rin
- To'lovga layoqatsizlikni hal qilish 75-o'rin<sup>4</sup>
- Iqtisodiy erkinlik indeksi 140-o'rin<sup>5</sup>

#### **Ijtimoiy sohalardagi ko'rsatkichlar:**

- Budjet ochiqligi indeksi-ma'lumot yo'qligi uchun o'rin berilmagan<sup>6</sup>
- Inson kamoloti indeksi 108-o'rin<sup>7</sup>
- Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik / terrorizmning mavjud emasligi 132-o'rin<sup>8</sup>
- Qonun ustivorligi 81-o'rin, MDXda 13-o'rin<sup>9</sup>
- Korrupsiyani tiyib turish 153-o'rin<sup>10</sup>
- Matbuot erkinligi 156-o'rin<sup>11</sup>
- Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi 155-o'rin<sup>12</sup>

Qayd etilgan natijalar jahon davlatlari bizga nisbatan qanchalar rivojlanib borayotgani, O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvi qanchalar eskirgani haqida aniq xulosalar beradi. Shuning uchun ham prizidentimiz Sh.Mirziyoev kadrlar masalasi haqida so'z borganda *“Mening eng katta muammoyim – bu kadrlar masalasi”, “Biz kadrlarimizning dunyoqarashini*

<sup>3</sup> [Jahon banki “Biznesni yuritish 2015” xalqaro ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasining reytingini oshirdi | O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi \(mineconomy.uz\)](#)

<sup>4</sup> [Doing Business in Uzbekistan - World Bank Group](#)

<sup>5</sup> [Uzbekistan took 114th place in the Economic Freedom Index 2020, improving its rating by 26 positions from the previous result | Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan \(mineconomy.uz\)](#)

<sup>6</sup> [OBS2015-Report-English.pdf \(internationalbudget.org\)](#)

<sup>7</sup> [Uzbekistan - Human Development Index - HDI 2019 | countryeconomy.com](#)

<sup>8</sup> [Political stability by country, around the world | TheGlobalEconomy.com](#)

<sup>9</sup> [WJP Rule of Law Index \(worldjusticeproject.org\)](#)

<sup>10</sup> [2015 - CPI - Transparency.org](#)

<sup>11</sup> [Uzbekistan improves in World Press Freedom Index - Tashkent Times](#)

<sup>12</sup> [Democracy Index - Wikipedia](#)

*o'zgartirmagunimizcha, bizda hech qanday ijobiy o'zgarish bo'lmaydi*<sup>13</sup> degan so'zlarni bir necha marta takrorlab o'tgan.

Bundan tashqari Prezident horijda faoliyat olib borayotgan o'zbek kadrlariga nisbatan davlat tomonidan Vatan hoinlari sifatida qaralishini jiddiy tanqid qilib ularning Vatanda emasliklariga sabab ular O'zbekistondagi noprofessionallik, qog'ozbozlik, korrupsiya, sansolarlik va boshqa boshqaruvdagi illatlar tufayli ekanligini takidlagan.<sup>14</sup> Rahbar kadrlarning muammolarga eskicha yondoshuvi, o'z qobig'iga o'ralib olishi, hatolarni tan olmasligi va boshqa muammolar, jahon hamjamiyatidagi O'zbekistonning o'rniga ochiq ko'z bilan qaramasligi, mafkuraviy tahdidlarga nisbatan konservativ dunyoqarashni xalq va davlat manfaatlariga zid ravishda saqlab turishi va boshqa hatolari O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar holatni bir necha marta "vulqon" ko'rinishiga olib keldi.

Afg'oniston muammosi, terrorizm, diniy ekstrimizm, "Tolibon" guruhi, yoshlar muammolariga nisbatan o'zining butunlay yangicha yondoshuvini 2017-yil 19-sentabrda BMT bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida<sup>15</sup> jahon hamjamiyatiga ma'lum qildi. Unga ko'ra ekstrimistik oqimlar tasiriga tushib qolgan fuqarolarni avvalgidek jamiyatdan ajratish, oilalariga esa dushmandek qarash holatlari o'rniga, fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni sog'lom hayotga tayyorlashni yo'lga qo'yilish bilan almashtirildi.<sup>16</sup> Bundan tashqari Prezidentimiz markaziy Osiyo bir butun mintaqaga ekanligiga urg'u berib, endi chegaralarni xarbiy kuch bilan taminlash orqali rivojlanish, tinchlikni taminlash siyosati eskirganligiga barchaning e'tiborini qaratdi.<sup>17</sup>

O'zbekiston Prezidenti birinchi bo'lib Afg'oniston muammosi yuzasidan kuch ishlatish samarasiz ekanligini etirof etib Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi siyosiy kuchlar o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan, to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish ekanligini BMT minbaridan turib qat'iy takidlagan.

Shavkat Mirziyoyevning bunday qat'iy liberal va insonparvarlik g'oyalari ustiga qurilgan siyosati "Tolibon" guruhi butun dunyo jamoatchiligi va xalqimiz ko'z oldida terrorchi tashkilotdan siyosiy kuch ko'rinishiga o'tishiga, ularning a'zolariga esa jinoyatchilardan hukumatlarning puxta o'ylanmagan va noto'g'ri siyosati qurbonlari sifatida munosabatda bo'linishiga sabab bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida taklif etgan "Marifat va diniy bagrikenglik rezolutsiyasi" 2018-yil 12-dekabrda a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.<sup>18</sup> Rezolutsiya prezident Shavkat Mirziyoyevning diniy e'tiqodi sababli

<sup>13</sup> [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi \(president.uz\)](http://president.uz)

<sup>14</sup> [Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerikada istiqomat qilayotgan o'zbeklar bilan uchrashdi | UzReport.news](http://uzreport.news)

<sup>15</sup> <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-prezidentining-bmt-bosh-assambleyasi-72-sessiyas-22-09-2017>

<sup>16</sup> "Ишонч" газетаси, 2017 йил 21 сентябрь

<sup>17</sup> <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

<sup>18</sup> <http://www.uzembassy.kz/uz/article/ozbekiston-prezidentining-tashabbusi-jahon-hamjamiyati-tomonidan-bir-ovozdan-qollab-quvvatlandi>

taqibga uchrash holatlarini, diniy ozchilikka bo'layotgan tahdidlar, islomafobiya, kamsitishlar, begona din va madaniyat rivojlanishiga qo'yilayotgan suniy to'siqlar (ksenofobiya)ni, e'tiqod qiluvchilarning huquqlarini himoya qilishda BMT va YUNESCO tashkilotlarining roli va tashabbuskorligini oshirish, ta'lim jarayoniga diniy bag'rikenglik g'oyalarini singdirish orqali kurashish haqidagi nazaryalarini o'zida ifoda etdi.<sup>19</sup>

Mamlakatda mafkuraviy tahdidlarga nisbatan munosabatni liberallashtirish islohotining yana bir ko'rinishi sifatida, Milliy mas-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamao fondi tashkil etilgani,<sup>20</sup> internet tarmog'ida jurnalsitik va bloggerlik faoliyatiga hukumat tomonidan to'siqlarning olib tashlangani, ularning faoliyatiga huquqiy, ijtimoiy maqomning berilishi bo'ldi.<sup>21</sup>

### References:

1. “Ишонч” газетаси, 2017 йил 21 сентябрь
2. 2015 - CPI - Transparency.org
3. Democracy Index - Wikipedia
4. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
5. <http://www.uzembassy.kz/uz/article/ozbekiston-prezidentining-tashabbusi-jahon-hamjamiyati-tomonidan-bir-ovozdan-qollab-quvvatlandi>
6. <https://mfa.uz/ru/press/news/2018/12/17039/>
7. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-94216-1.html?page=3>
8. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-prezidentining-bmt-bosh-assambleyasi-72-sessiyas-22-09-2017>
9. <https://www.massmedia.uz/oz/pages/about>
10. <https://www.youtube.com/watch?v=iHEmpkFwjEk>
11. Jahon banki “Biznesni yuritish 2015” xalqaro ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasining reytingini oshirdi | O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (mineconomy.uz)
12. Doing Business in Uzbekistan - World Bank Group
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (president.uz)
14. OBS2015-Report-English.pdf (internationalbudget.org)
15. Political stability by country, around the world | TheGlobalEconomy.com
16. Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerikada istiqomat qilayotgan o'zbeklar bilan uchrashdi | UzReport.news
17. Uzbekistan - Human Development Index - HDI 2019 | countryeconomy.com
18. Uzbekistan improves in World Press Freedom Index - Tashkent Times

<sup>19</sup> <https://mfa.uz/ru/press/news/2018/12/17039/>

<sup>20</sup> <https://www.massmedia.uz/oz/pages/about>

<sup>21</sup> <https://www.youtube.com/watch?v=iHEmpkFwjEk>

19. Uzbekistan took 114th place in the Economic Freedom Index 2020, improving its rating by 26 positions from the previous result | Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan (mineconomy.uz)
20. WJP Rule of Law Index (worldjusticeproject.org)
21. Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари бўйича мажлиси.  
[https://www.youtube.com/supported\\_browsers?next\\_url=https%3A%2F%2Fwww.youtube.com%2Fwatch%3Fv%3DDprh27sjYDA](https://www.youtube.com/supported_browsers?next_url=https%3A%2F%2Fwww.youtube.com%2Fwatch%3Fv%3DDprh27sjYDA)
22. Мирзиёев Ш «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз». Тошкент - «Ўзбекистон» - 2017. 11 б.